

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Abduraximova Iroda Abdukarimovna

Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 11-

maktabning Ingliz tili o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Hozirda mamlakatimizda umumta’lim maktablarda, ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda turli innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqola umumta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan.*

***Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, “Bumerang” metodi*

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasi proffessionl ta’limning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lganligi sababli, ularda til o‘rganishga bo‘lgan talab yuqoridir.

Axborot texnologiyalari va zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan ta’lim dasturlarini yechishga qodir bo‘ladi. Shu munosabat bilan o‘qituvchilar va o‘quvchilar xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bunda o‘qitish va o‘rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O‘qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o‘quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Zamon ilgarilab borgan sari har sohada yangilik ko‘payib bormoqda.

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya sifatini va samaradorligini oshirish kelguchi taraqqiyotimizning asosi ekanligini juda yaxshi tushunamiz. O‘qituvchi dars davomida o‘z faniga ijodkorlik bilan qarashi kerak. O‘qituvchi zamonaviy

pedagogik texnologiyalar va uslublardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak.

Hozirda pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda.

Hozirgi kunda interfaol metodlarning bir necha turlarni bo'lib, ta'lim jarayoni shu yo'llardan foydalanib kelinmoqda. Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib beruvchi va shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir.

Ta'lim metodlarining turlari juda ko'p. O'quvchilar o'quv axborotlarni o'zlashtirish, mavzuni tushunib yetishlari, mavzuni ma'ruza, hikoya, tushuntirish orqali, videousul orqali bilimlarini mustahkamlashlari zarur.

O'qituvchi o'quv axborotlarni mustahkamlashga, tushunib yetishi uchun xizmat qiladigan, o'quvchilarni shu mavzu ustida fikrlashga o'rgatadigan bir necha usullardan foydalanishi kerak. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishga, kitoblar bilan ishlashga ingliz tilida zamonlarga oid, fonetikaga oid, mashqlar bilan ishlashga o'rganish kerak. o'quvchilarning faoliyatini rivojlantirish uchun yana “bahs”, “davra”, suhbat, “pinbord”, “ishbilarmonlik”, miyaga hujum, taqdimot metodi, aqliy hujum metodi, “ajurli arra” metodi, “Adolat o'lkasiga sayohat” metodi, “Asalari galasi” metodi, “Bahs-munozara” metodi, “Galeriya” metodi, “Gugurt donalari metodi”, “Idrok xaritasi” metodi, “Yagona davra” metodi va boshqa ko'p metodlardan dars jarayonida foydalanish mumkin.

Misol uchun, 5-sinfda Unit 11. Lesson 1. My favourite season Educational aim of this lesson: – to learn to about seasons.

Developing aims: – to enable pupils to talk about seasons.

Yangi o'tiladigan mavzu bo'yicha “Bumerang texnologiya”sini qo'llash mumkin. Ushbu texnologiya o'quvchilarni dars jarayonida, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrni erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga

qaratilgan. Maqsadi: suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatilgan materiallardagi matn va savollarga qanday javob berishlarini, o'zlashtirilganligini nazorat qilish hamda baholash. O'quvchilarni o'z baholarini egallashga imkoniyat yaratish.

Texnologiyaning qo'llanishi. Amaliy mashg'ulotlar hamda suhbat munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda kichik guruh va jamoa shaklida foydalanilishi mumkin. Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: o'quvchilar uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar(ya'ni, mavzu bo'yicha qisqa matnlar, suratlar, ma'lumotlar).

O'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi. O'quvchilarga darsning maqsadi tushuntiriladi:

- O'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;

For example. Dear Sabina

Thank you for your letter. Today I want to write about our pets. Last year we had two cats: Fluffy and Tiger. But this year we have more pets. My mother has two cats and three kittens. My father likes rabbits and we have two. Their names are Flossie (white) and Blackie (black). My brother Daniel likes dogs and he has a dog Paws and two puppies. He has two hedgehogs and a tortoise too. I like fish and I have three goldfish. We like canaries and we have a canary.

Do you have pets? Please write to me about your pets.

Love

Lucy

Va shunga o'xshash 3 ta matn tarqatiladi.

-o'quvchilar tomonidan berilgan matnlar yakka tartibda mustaqil ravishda o'rganiladi;

-Har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;

-Yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlari bilan axborot almashadilar. Ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, matnni o'zlashtirib olishlariga erishadilar;

- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar.

What is your favourite season?

I like spring. What is your favourite season?

-I like winter. What is your favourite season?

-I like autumn.

- What is your favourite season, Bobur?

-I like summer because I can swim.

According to the texts must be given questions.

Who writes a letter? Lucy writes a letter. Who wrote a letter? Lucy wrote a letter? Lucy wrote a letter to Sabina.

O'quvchilarga o'qituvchi savollar bilan murojaat etadi, og'zaki so'rov o'tkazadi. Savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarini to'plagan umumiy ballari aniqlanadi. Guruhlar to'plagan umumiy ballari aniqlanadi. Guruhlar to'plagan umumiy ballarni guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlaydilar.

Interfaol ("inter"- o'zaro "ast" – harakat qilmoq) –o'zaro harakat qilmoq, kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bshlishni anglatadi.

O'qitishning interfaol uslubiyatlari

-bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Darsda o'tilgan "Bumerang" texnologiyasi o'quvchilarga fikrlash, ularda mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, shuningdek, ularning xotirasini, g'oyalarini, fikrlarini, dalillarini yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish

ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur uslub o‘quvchilarga ta‘lim bilan bir qatorda tarbiyaviy xarakterdagi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalilik;
- xushfe‘llik;
- ko‘nikuvchanlik;
- o‘zgalar fikrni hurmat qilish;
- faollik;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
- o‘zini baholash kabi qator sifatlarini ham shakllantirish imkoniyatini

beradi.

Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy tilni o‘rgatish ko‘proq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘z-o‘zini tahlil qilish va yangi bilimlarni tizimlashtirish ko‘nikmalariga ega ekan. Innovatsion usullar butun tizimni modernizatsiya qilishning ajralmas qismidir. Shunga amin holda o‘qituvchilar eng ilg‘or yondoshuvlar bilan tanishishlari va keyinchalik ularni birlashtirishi va o‘z ishlarida foydalangan holda ta‘lim tizimida sezilarli o‘sishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jurayev L., Xan S., Kamalova L. New Fly High. Ingliz tili 5-sinf darsligi
2. www.ziyounet.uz
3. Wikipedia.uz